

O'rta Osiyoning IX – XIV asrning o'rtalari tarixiga oid yozma manbalar

Jumayev Abdusalom

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Arab xalifaligi hukmronligi davrida musulmon Sharqida arab tili keng tarqaldi. Bu ko'p jihatdan ushbu mamlakatlarda yangi din – islomning qaror topishi bilan bog'liq edi. Deyarli butun diniy adabiyot shu tilda yaratilgan. Boshqaruv idoralarida ham arab tilidan foydalanilar edi. Asta-sekinlik bilan arab tili adabiyot va san'at sohasida ham qo'llanila boshlandi. Bu tilda faqat arab olimlari va adiblar emas, balki xalifalik tomonidan zabt etilgan mamlakatlar, jumladan, Xuroson va Movarounnahrda yetishib chiqqan ma'rifatli kishilar ham ijod qildilar.

Kalit so'zlar: "Kitob al-buldon", "Risola", "Kitob axbor al-buldon", "Kitob masolik ul-mamolik"

Xuroson va Movarounnahrning IX-X asrlar tarixini yoritishda arab tilidagi tarixiy-jug'rofiy adabiyotlar muhim o'rin tutadi. Geograf-olimlar O'rta Osiyoning tabiiy sharoitlari, xo'jaligi, shahar va viloyatlari haqida ma'lumotlar yozib qoldirganlar. Xususan, bu yurtga turli davrlarda tashrif buyurib, haqiqiy ahvolni o'z ko'zi bilan ko'rgan sayyohlarning yozib qoldirgan ma'lumotlari maroqlidir. Ular keltirgan axborotlarning to'g'rilik darajasi yuqoridir. IX asr arab geograf olimi al-Ya'qubiy (Abul Abbos Ahmad ibn Ya'qub) Bag'dodda tug'ilib, uzoq yillar davomida Arab xalifaligi tarkibiga kirgan Armaniston, Xuroson, Falastin, Misr va Mag'ribda yashagan.¹ Al-Ya'qubiy ushbu viloyatlar ma'muriyatida mas'ul lavozimlarda ishlagan, deb taxmin qilish mumkin (Uning bobosi va otasi

¹ Абдуллаев И. Абу Мансур ас-Саолибий. – Т.: Ўзбекистон, 1992.

davlat amaldorlari bo'lib, turli viloyatlarda xalifa uchun ma'lumotlar to'plashgan, degan fikrlar bor). Shubhasiz, uzoq muddat davomida turli mamlakatlarda yashash unga bo'lajak kitoblari uchun materiallar to'plash imkoniyatini bergan. Jumladan, "Kitob al-buldon"² ("Mamlakatlar to'g'risidagi kitob") nomli asarida al-Ya'qubiy ko'p mamlakatlar qatorida Eron, Movarounnahr, Xorazm va Seiston haqida, ularning jug'rofiy joylanishi, yirik shaharlari va qal'alari, aholisi, uning mashg'ulotlari va urf-odatlari to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar yozib qoldirgan. "Kitob al-buldon" asarining ikkita nusxasi Germaniyada saqlanmoqda. Asarning arabcha matni 1892-yilda Leydenda golland sharqshunos-olimi M.Ya.de Guye tomonidan nashr etilgan. O'rta Osiyo to'g'risidagi ayrim ma'lumotlar arab sayyohi Ibn Fadlan (X a.) asarlarida uchraydi. Jumladan, u o'zining "Risola" nomli asarida Kaspiy dengizining sharqiy sohillarida yashagan xalqlar to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar beradi. O'rta Osiyoning tarixiy jug'rofiyasi, Balx, Samarqand va boshqa shaharlar to'g'risidagi ma'lumotlar Ibn al-Faqihning "Kitob axbor albuldon" ("Mamlakatlar to'g'risidagi xabarlar kitobi") (X a.) asarida uchraydi. Muallifning haqiqiy ismi – Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad alHamadoniydir.³ Ibn al-Fakihning bu asari to'liq holda saqlanmagan. Bizgacha asarning 1022-yilda Ali ibn Ja'far ash-Shayzoriy tomonidan tahrir etilib, qisqartirilgan nusxasi yetib kelgan. Ushbu nusxa de Guye tomonidan Leydenda 1885-yilda nashr qilingan. 1923-yilda esa Mashhaddagi Imom Rizo masjidi kutubxonasida "Kitob axbor al-buldon" qo'lyozmasining ikkinchi qismi topildi. Tarixiy manba sifatida eronlik olim Abulqosim Ubaydulloh ibn Xurdodbeh (820-913) ning asarlari diqqatga

² Абдулкарим Саъбоний. Ал-ансоб. Насабнома (VII-XII асрда яшаган бухоролик олимлар ҳақида маълумот). – Бухоро: “Бухоро” нашриётиб 1999.

³ . Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи / Форс тилидан А.Расулев таржимаси // Мерос. – Т.: Камалак, 1991. Б. 88-174.

sazovordir. U nufuzli amaldor oilasida tug'ilgan. Uning otasi Tabariston viloyatining hokimi bo'lgan. Abulqosim yoshligida yaxshi ma'lumot oldi, u jug'rofiya, tarix, meteorologiya va boshqa fanlarni yaxshi o'rgandi. Xalifa Mu'tamid (870-892) davrida ibn Xurdodbeh hukmdorga yaqin kishi (nadim) edi. Keyinchalik u muhim davlat lavozimlariga tayinlandi, jumladan, Jibal viloyatida (Eronning shimoli-sharqiy qismi) pochta va razvedka boshlig'i (sohib barid va l-xabar) lavozimida xizmat qildi. Ibn Xurdodbeh turli fanlarga oid 10 ga yaqin asar yozdi. Ular orasida eng muhimi "Kitob masolik ul-mamolik" ("Mamlakatlarga eltuvchi yo'llar haqidagi kitob") hisoblanadi. Unda muallif Arab xalifaligi tarkibiga kirgan mamlakatlar, shaharlar, ular o'rtasidagi masofa, aholidan undirilgan soliqlar va o'lponlar to'g'risida muhim ma'lumotlar keltiradi. Ibn Xurdodbehning asarida O'rta Osiyoning shaharlari – Samarqand, Kushoniya, Ushrushona, Shahrison, Shosh va Isfijob (Sayram), shuningdek, Movarounnahrda pul muomalasi, bu yerda istiqomat qilgan turkiyzabon qabilalar haqida ma'lumotlar keltiriladi. Bizgacha asarning faqat qisqartirilgan varianti yetib kelgan. Uni 1889-yilda de Guye nashr ettirgan. Asarning ruscha tarjimasi N.Valixanova tomonidan Bokuda 1986-yilda nashr etildi.⁴ Ibn Xurdodbehga zamondosh bo'lgan yana bir eronlik geograf olim va sayyoh Abu Is'hoq Ibrohim ibn Muhammad al-Forsiy al-Istaxriy (850-934) edi. U ko'p sayohat qilgan va Movarounnahr, Suriya, Misr, Mag'rib singari mamlakatlarda bo'lgan. O'z sayohatlari chog'ida al-Istaxriy ushbu mamlakatlarning jug'rofiyasiga oid ko'p materiallar to'pladi va keyinchalik "Kitob masolik ul-mamolik" ("Mamlakatlarga eltuvchi yo'llar haqidagi kitob") nomli asarini yozdi. U asariga o'zining zamondoshi Abu Zayd Ahmad al-Balxiyning "Suvar al-aqolim" ("Qit'alar tavsifi") kitobini asos qilib oldi hamda unga ancha yangi

⁴ Абу Мансур ас-Саолибий. Ажойиб маълумотлар / Тадқиқ қилувчи, таржимон, изоҳ ва кўрсаткичларни тузувчи И.Абдуллаев. – Т.: А.Қодирий ном. нашр., 1995.

ma'lumotlar qo'shdi. Boshqa musulmon mamlakatlari qatorida, al-Istaxriy O'rta Osiyo, uning sarhadlari, iqlimi, ma'muriy bo'linishi, savdo-sotiqning ahvoli, aholisi va uning mashg'ulotlari, mashhur kishilari to'g'risida ma'lumotlar yozib qoldirgan. Al-Istaxriy asarining arabcha matni uch marta (1870, 1927, 1967) Leyden shahrida nashr etilgan. Asar XVI asrdayoq Abulmahosin Muhammad al-Naxichevoniy tomonidan fors tiliga tarjima qilingan. Asarning qo'lyozma nusxalari Sankt-Peterburg va Toshkent shaharlarida saqlanmoqda. Sharq mamlakatlari tarixi, jumladan O'zbekiston tarixini tadqiq etishda arab olimi va sayyohi Abulhasan Ali ibn al-Husayn al-Mas'udiy (956yilda Qohirda vafot etgan) asarlari katta ahamiyatga ega. Mas'udiy Bag'dodda zodagon oilada tug'ilgan. 915-945-yillar oralig'ida amalga oshirgan sayohatlari chog'ida Eron, Shom, O'rta Osiyo, Ummon, Shimoliy Afrika, Zanzibar, Hindiston, Seylon, Xitoy va boshqa mamlakatlarda bo'lgan. Mas'udiy adabiyot, falsafa, fiqh, jug'rofiya va tarix fanlari bo'yicha chuqur bilimlarga ega edi.⁵ U fanning turli sohalariga doir 20 dan ziyod asar yozgan. Afsuski, ularning ko'pi bizgacha yetib kelmadi. Uning saqlanib qolgan asarlaridan biri – "Muruj az-zahab" ("Oltin maysazor") tarixiy manba sifatida katta ahamiyatga ega. Asar 947-yilda yozilib, 956-yilda qayta ishlangan. "Muruj az-zahab" ko'p xalqlar, shu jumladan turkey qavmlar tarixi, ijtimoiy tuzumi va udumlari to'g'risida xilma-xil ma'lumotlar beruvchi qomusiy asardir. Uning matni va fransuz tiliga qilingan tarjimasini 1861-1877-yi llarda Parijda nashr etilgan.

Xulosa: Shunday qilib, O'rta Osiyoda IX – XIV asrning birinchi yarmida kechgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar arab va fors-tojik tilida bitilgan turli yozma manbalarda o'z aksini topgan. Ular asosan sayyohlarning safarnomalari, tarixiy va tarixiy-jug'rofiy asarlar, adabiy asarlar, tazkiralar,

⁵ 5. Абу Райхан Беруни. Памятники минувших поколений // Абу Райхан Беруни. Избранные произведения. Т. 1. Перевод и прим. М.А.Салье. – Т., 1957.

manoqiblar, shuningdek, yuridik hujjatlardan iborat. Ushbu manbalardan mushtarak tarzda foydalanish Xuroson, Movarounnahr va Xorazmning oʻrta asrlar tarixining turli qirralarini ochib berish imkoniyatini beradi

Manbalar, adabiyotlar va elektron resurslar

1. Абдуллаев И. Абу Мансур ас-Саолибий. – Т.: Ўзбекистон, 1992.
2. Абдулкарим Саъбоний. Ал-ансоб. Насабнома (VII-XII асрда яшаган бухоролик олимлар ҳақида маълумот). – Бухоро: “Бухоро” нашриётиб 1999.
3. Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи / Форс тилидан А.Расулев таржимаси // Мерос. – Т.: Камалак, 1991. Б. 88-174.
4. Абу Мансур ас-Саолибий. Ажойиб маълумотлар / Тадқиқ қилувчи, таржимон, изоҳ ва кўрсаткичларни тузувчи И.Абдуллаев. – Т.: А.Қодирий ном. нашр., 1995.
5. Абу Райхан Беруни. Памятники минувших поколений // Абу Райхан Беруни. Избранные произведения. Т. 1. Перевод и прим. М.А.Салье. – Т., 1957